

YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING IJTIMOIY -PSIXOLOGIK OMILLARI

Xaydarov Ismoil Olloqulovich

O‘zbekiston respublikasi

Jamoat xavfsizligi Universiteti dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlarning vatanparvarlik tuyg‘usining mazmun- mohiyatini anglashlari va bu fazilatni namoyon bo‘lishining asosiy jihatlari, chuqur hissiy asosda vatanparvarlik tuyg‘ularini rivojlantirishning ijtimoiy - psixologik omillari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: vatanparvarlik, noqonuniy-harbiy uyushmalar, vatan himoyasi, umumiy harbiy majburiyat, vatanparvarlik tarbiyasi

Yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘ularini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyati - bilim va axloqiy tuyg‘ularning birligi hisoblanadi.

Yoshlarning vatanparvarlik tuyg‘usining mazmun- mohiyatini anglashlari va bu fazilatni namoyon bo‘lishining asosiy jihatlari, chuqur hissiy tajribaga ega bo‘lishlari katta ahamiyatga ega. Aynan mana shu unumdor zaminda o‘quvchilarning o‘z vataniga muhabbati oshadi, e’tiqodi, qarashlari, ijtimoiy xulq-atvorga munosabati yuzaga keladi.

O‘zbekiston jamiyatning faol qatlami sifatida e’tirof etiluvchi yoshlarga «muammo» deb emas, balki yurt ravnaqini ta’minlovchi katta kuch, davlatning strategik resursi sifatida qaralmoqda.

Hozirgi kunda dunyoning turli burchaklari sodir bo‘layotgan qonnli to‘qnashualar keng avj olayotgan bir payta bizning tichligimizga xavf solishi mumkin bo‘lgan sabablar:

- 1. Dunyoning turli mintaqalarida qurollangan guruhlarining bir joyga to‘planishining yuqori darajasi;
- 2. Dunyo bo‘yicha siyosiy vaziyatning kuchayishi;
- 3. Alohida davlatlar va davlat bloklarining o‘z siyosatlarini kuch bilan hal qilishi;
- 4. Ba’zi davlatlarning boshqa mamlakatlar chegarasi yaqinida o‘z qurolli kuchlari guruhlarini kuchaytirishga intilishi;
- 5. Chegaradosh mamlakatlarda yuzaga kelgan siyosiy ahvolning o‘zgaruvchanligi va ularning kuchayishi imkoniyati mavjudligi;
- 6. Ba’zi bir davlatlarning markaziy osiyo mintaqasidagi malakatlarga o‘z ta’sirini kuchaytirishga intilishi;

• 7. Siyosiy ekstremist guruhlar, noqonuniy-harbiy uyushmalar tomonidan tashkil qilingan terroristik aktlar.

Bu turdagi xavflarni oldini olish uchun vatan himoyasiga doim tayyor yoshlarimizni tarbiyalash bosh maqsad bo‘lmog‘i lozim.

Bizga ma’lumki harbiy vatanparvarlik tarbiyasini jismoniy tarbiya bilan o‘zviy bog‘liq suratda olib borilganidagina yaxshi natija beradi. Shuning uchun harbiy vatanparvarlik tarbiyasini jismoniy tarbiyasiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Sovuqqa va issiqqa bardoshli bo‘lish, kasalliklarga tezda berilmaslik, qiyinchiliklarni yengish, irodalilik, sabot – matonatlik, tez va chaqqon harakat qila bilish kabi vatan himoyachisiga xos fazilatlarni talaba - yoshlarda rivojlantirishda jismoniy tarbiya va sport o‘inlarining roli benihoyat katta ekanligiga e’tibor qaratish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni vatan mudofaasiga jismonan va ma’naviy jihatdan tayyorlash zarurligi hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Bu borad O‘zbekiston respublikasida yoshlarimiz qalbida vatanparvarlik tuyg‘ularini yanada yuksaltirish, ularda mardlik, jasorat, sadoqat kabi fazilatlarni shakllantirish, o‘z xalqining mard o‘g‘loni bo‘lgan yigitlarni munosib taqdirlash maqsadida “Mard o‘g‘lon” davlat mukofati ta’sis etilishi yoshlarni vatanparvarlikni rag‘batlantirishga asos bo‘ldi.

Hozirgi kunda yoshlarni vatan himoyasiga tayyorlashda, vatanparvarlik tarbiyasining mazmunan va tashkiliy–uslubiy tomonlaridan to‘laroq qayta ko‘rib chiqish talab qilinmoqda.

Agar biz yoshlarni o‘quv faoliyati davomida harbiy soha hayoti bilan yaqindan tanishtirmasak, tinchlikni mustaxkamlash, mamlakatimiz mudofa qudratini bilan ruhlantirmasak, oddiy tadbirlar va ma’ruzalar orqali tushuntirish hech qanday samara bermasligi mumkin.

Vatanparvarlik bu qo‘lida qurol bilan o‘z vatani himoyasiga tayyor bo‘lgan vatanparvar yoshlarni tarbiyalashda ta’lim maskanlari pedagogik jamoasining faoliyati, o‘rni beqiyosligini ko‘rsatishdir.

Bunda; - O‘zbekiston xalqining jangovar vatanparvarlik an‘analarini targ‘ibot qilish, yoshlarda harbiy xizmatga va armiyaga muhabbat, yuksak ma’naviy jangovar xislatlarni shakllantirish;

- jasurlik, intizomlilik, zukkolik, o‘z vatani himoyasiga doimo tayyor bo‘lishi ruhida tarbiyalash bosh mezon sifatida qoralishi;

- yoshlarga O‘zbekiston respublikasi "umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risi"gi qonuni, harbiy qasamyod va harbiy nizomlarning asosiy talablarini o‘rganish va o‘zlashtirishi;

- ajdodlar merosi, buyuk va jasur ota - bobolarimizning jangovar an‘ana udumlarini targ‘ibot qilish;

- yoshlarga harbiy qasamyod va harbiy nizomlarni bajarishda shaxsiy javobgarlik, vatanini himoya qilishda O‘zbekiston respublikasi fuqarolarining konstitutsion burchi ekanligini tushuntirish;

- yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlashning maqsad va vazifalarini muntazam tushuntiri borishga qaratilgan ma’naviy-siyosiy va psixologik fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni birinchi o‘ringa chiqishi lozim.

- bizga ma’lumki harbiy vatanparvarlik tarbiyasini jismoniy tarbiya bilan o‘zviy bog‘liq suratda olib borilganidagina yaxshi natija beradi.

- shuning uchun harbiy vatanparvarlik tarbiyasini jismoniy tarbiyasiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Sovuqqa va issiqqa bardoshli bo‘lish, kasalliklarga tezda berilmaslik, qiyinchiliklarni yengish, irodalilik.

- sabot – matonatlik, tez va chaqqon harakat qila bilish kabi vatan mudofaachisiga xos fazilatlarni talaba – yoshlar va o‘qituvchilarda rivojlantirishda jismoniy tarbiya va sport o‘inlarining roli benihoyat kattadir.

Xulosa

Agar biz yoshlarni o‘quv faoliyati davomida harbiy soha hayoti bilan yaqindan tanishtirmasak, tinchlikni mustaxkamlash, mamlakatimiz mudofa qudratini bilan ruhlantirmasak, oddiy tadbirlar va ma’ruzalar orqali tushuntirish hech qanday samara bermasligi mumkin. Shuni inobatga olgan holda ta’lim dasturlarida “Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi” fanini kiritish zaruriyati sezilmoqda.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi” fanini o‘rganish natijasida yoshlar quyidagilarni bajara olishi zarur:

- o‘quvchilar harbiy vatanparvarlik tarbiyasi bo‘yicha o‘rta maxsus talim o‘quv yurtlaridagi tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish, ya’ni halqimiz jangovar va mehnat shuhratiga sazovor bo‘lgan joylariga safarlar uyushtirish;

- urush va mehnat faxriylari bilan uchrashuvlar tashkil qilish, qurolli kuchlar askarlari bilan uchrashuvlar o‘tkazish;

- harbiy vatanparvarlik mavzusi bo‘yicha nazariy konferensiyalar o‘tkazish, harbiy oliy bilim yurtlarida o‘qish uchun nomzodlar tanlash va tayyorlash;

- harbiy ish asoslarini o‘rganish uchun harbiy to‘garaklar tashkil qilish.

- mazkur fanni o‘rganish jarayonida har bir talaba mustaqil ravishda harbiy vatanparvarlik mavzusida 4-5 ma’ruza tayyorlashi (doklad, referat) shart.

Bu tadbirlarning muvofaqiyatli hal etishning asosiy yo‘llaridan biri ta’lim va tarbiyaning turli shakllarida amalga oshirish maqsadga movofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g‘oyamizning poydevoridir. –T., 2021.

2. Baratov Sh.R., Jabborov X.X. Yoshlarda mafkuraviy immunitet shakllanishining psixologik mexanizmlari /O‘quv qo‘llanma, Buxoro, 2017, “Durdona” nash. 190 b.
3. Begmatov A., Rustamov R. Milliyo g‘oya targ‘iboti va madaniy-ma‘rifiy tadbirlar. T.:”Ma‘naviyat” nash, 2007, - 78 b.
4. Nasriddinov Ch.R. Harbiy psixologiya. Toshkent. «Fan» nashriyoti 2004.
5. Sa‘dulla Otamurodov, Sarvar Otamurodov. O‘zbekistonda ma‘naviy – ruhiy tiklanish. Toshkent. «Yangi asr avlodi» nashriyoti 2003.
6. Harbiy - Vatanparvarlik tarbiyasi asoslari. «Ma‘rifat» nashriyoti 1988.
7. E.Umarov, M.Abdullaev. Ma‘naviyat asoslari. “Sharq” nashriyoti 2005y.
9. Inoyatov I.Yu., Abilov M.X. «Vatan himoyasi muqaddas burch» Toshkent. “O‘zbekiston”. 2001y.